

Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-oktabr oylarida, Surxondaryo viloyatida jami 11 895,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Surxondaryo viloyati *	11 895,1	111,4
Termiz sh.	3 447,6	115,6
Oltinsoy tumani	199,4	127,3
Angor tumani	291,2	110,9
Bandixon tumani	137,2	112,1
Boysun tumani	456,2	106,2
Muzrabot tumani	243,6	114,3
Denov tumani	740,1	109,4
Jarqo'rg'on tumani	478,8	108,3
Qumqo'rg'on tumani	286,3	108,5
Qiziriq tumani	272,1	96,5
Sariosiyo tumani	753,8	108,7
Termiz tumani	562,1	103,7
Uzun tumani	189,1	116,2
Sherobod tumani	359,6	104,6
Sho'rchi tumani	178,8	101,3

*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida Surxondaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 74,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 21,7 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,2 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 169,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	379,3	816,7	62,0
<i>o'sish sur'ati, %</i>	277,9	121,1	198,4
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	4 324,3	1 761,8	437,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	109,4	96,7	166,0
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	4 113,2	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	108,1	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-oktabr oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 258,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 149,4 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,7 % ga ko'payib, 10,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,8 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ni tashkil etgan holda 6 523,9 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 34,6 % ni yoki 4 113,2 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 108,1% ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Surxondaryo viloyati *	1 258,0	6 523,9	4113,2	149,4	108,0	108,1
Termiz sh.	144,2	3233,9	69,5	243,1	113,9	82,8
Oltinsoy tumani	60,6	102,9	35,9	874,4	90,5	99,1
Angor tumani	29,3	136,6	125,3	169,9	96,5	120,8
Bandixon tumani	27,0	60,8	49,4	146,5	106,4	105,3
Boysun tumani	20,3	293,1	142,8	128,0	103,7	109,2
Muzrabot tumani	36,4	69,3	137,9	111,5	114,4	115,0
Denov tumani	28,7	444,8	266,6	112,0	109,5	108,9
Jarqo'rg'on tumani	68,6	243,5	166,7	176,2	99,4	105,3
Qumqo'rg'on tumani	43,7	125,9	116,7	199,2	89,5	115,4
Qiziriq tumani	12,4	206,6	53,1	89,3	94,0	110,2
Sariosiyo tumani	338,6	207,9	207,3	117,6	103,0	101,7
Termiz tumani	41,3	378,5	142,3	137,6	97,9	114,0
Uzun tumani	56,9	72,0	60,2	172	84,7	135,2
Sherobod tumani	37,4	116,7	205,5	133,7	102,2	101,9
Sho'rchi tumani	5,8	101,0	72,0	186,8	91,8	113,9

*) Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Oltinsoy tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 874,4 %), Qumqo'rg'on tumani (199,2 %) va Jarqo'rg'on tumani (176,2 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Muzrabot tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 114,4 %), Sherobod tumanida (102,2 %) va Termiz shahriga (113,9 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Surxondaryo viloyati investitsiya va
qurilish statistikasi bo'limi

Ijrochi:
SH. Gaipov
55 451-80-00 (7520)

